

“GENDER MUNOSABAT” LARNING TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA TUTGAN O‘RNI

N.A.Vaxabova

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson jinsining ijtimoiy madaniy va ma'naviy jihatdan ifoda etuvchi tushuncha - gender munosabatlar va ularning bilish talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda nechog'lik ahamiyatga ega ekanligi va oilaviy hayot yaxshi bo'lmog'i, baxtli yashash uchun nimalarga e'tibor bermoq lozimligi haqida fikrlar yuritilgan

Kalit so'zlar: Gender atamasi, gender munosabatlar, "jins", "jins vakillari", oila, urf-odatlar, qadriyatlar, milliy aqidalar, faoliyat turlari, erkak va ayol vazifalari.

РОЛЬ «ГЕНДЕРНЫХ ОТНОШЕНИЙ» В ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОК К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Н.А.Вахабова

Наманганский государственный университет

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие гендерных отношений как социально-культурного и духовного выражения человеческой половой принадлежности, а также значимость их изучения в процессе подготовки студенток к семейной жизни. Раскрывается, насколько понимание гендерных отношений способствует формированию готовности к благополучной и счастливой семейной жизни, и на какие аспекты необходимо обращать внимание для её гармоничного становления.

Ключевые слова: гендер, гендерные отношения, «пол», «представители пола», семья, обычаи, традиции, ценности, национальные представления, виды деятельности, обязанности мужчин и женщин.

THE ROLE OF “GENDER RELATIONS” IN PREPARING FEMALE STUDENTS FOR FAMILY LIFE

N.A.Vakhabova

Namangan State University

Abstract. This article examines gender relations as a socio-cultural and spiritual concept reflecting human sex identity, and discusses the significance of understanding these relations in preparing female students for family life. It also highlights the key aspects that should be taken into consideration to ensure a harmonious and happy family life.

Key words: gender, gender relations, “sex,” “sex representatives,” family, customs, traditions, values, national beliefs, types of activities, roles of men and women.

KIRISH

Inson jinsining ijtimoiy madaniy va ma'naviy jihatdan ifoda etuvchi tushuncha gender munosabatlar deyiladi. Oila jamiyatning kichik bir yacheykasi, boshlang'ich ijtimoiy bir bo'g'inidir. Oila deb atalmish ana shu muqaddas dargoh o'zida oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayillari, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyat turlarini aks ettiradi. Bugungi kundagi turli zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlat egasi bo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab avaylab, ularga amal qilib yashash jamiyat rivoji uchun nechog'li ahamiyatli, shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba qizlarning oilaviy hayotga tayyorlash, ular ongiga gender munosabatlarni, ya'ni odamlar o'rtasida biologik farqlardan tashqari, ularning ijtimoiy vazifalari, xulqi, ruhiyati va hissiyotida ham muayyan tafovut mavjudligini singdirish maqsadga muvofiq [1]. Oila – jamiyat negizi, er-xotin, farzandlarni o'z ichiga olgan jamoa. Davlatimizni katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga ko'ra quriladi, o'zinig ko'p asrlik mustaxkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab–extiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. Ana shu oila qo'rg'oni mustahkam bo'lishida oila deb atalmish muhtasham qasrda istiqomat qiluvchilarning asosiy ishtirokchilari bo'lmish yoshlarimizning oilaviy hayotga tayyorgarligi nechog'li ahamiyatga molik [3].

MATERIALLAR VA METODLAR

So'nggi yillarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida qanchalik ko'p gapirilib, yozilib, maxsus tadbirlar tashkil qilinsa ham nizoli oilalar, ajralishlar miqdori ortsa ortayapti, kamaymayaptiku? degan savol tug'ilishi muqarrar. Ularning har birining yuzaga kelishiga to'liq asos bor. Bu borada Gender munosobatlarga e'tibor berish maqsadga muvofiq, deb o'ylayman. Xo'sh, "Gender munosobatlarni" nima, u yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qanday ta'sir qiladi?

"Gender munosabatlar" (ingl. gender-tur) – inson jinsining ijtimoiy madaniy va ma'naviy jihatini ifoda etuvchi tushuncha. Gender atamasi ijtimoiy fanlarda jins mavzusini o'rganishda yangicha yodashuv shakllangan pallada, ya'ni 50- yillarda

kiritilgan. Bu davrgacha jins tushunchasi odamning anotomok- fiziologik xususiyatini anglatgan holda insoniyatni erkak va ayol jinslariga ajratishnigina nazarda tutardi. Jins(ya'ni biologik xususiyatlar) erkak va ayol o'rtasidagi farqning asosi va birlamchi sababi, deb talqin etilardi. Lekin odamlar o'rtasida biologik farqlardan tashqari, ularning ijtimoiy vazifalari, xulqi, ruhiyati va hissiyotida ham muayyan tafovut mavjud edi. [2]

“Gender” atamasi ilmiy atama sifatida 1968 yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan istemolga kiritilgan bo'lib, “jins” ma'nosini bildiradi.

Gender munosabatlar ilgari ham psixologiyada faol o'rganinlgan bo'lsada, yangini atamani paydo bo'lish ijtimoiy fanlarda yangi oqimlarni yuzaga keltirdi. Gender tushunchasi, avvalo, erkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar munosabatlarini ijtimoiy psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi. Mazkur tushuncha yangi ijtimoiy qarashlar va madaniyatga bog'liq. Inson tug'ilgan kundan boshlab gender tuzimida bo'ladi. An'anaviy urf-odatlar ta'siri kucli bo'lgan jamiyatlarda tug'ilish bilan bog'liq bo'lgan turli udumlarga rioya etish, masalan; caqaloqq tanlanayotgan kiyimning rangidan boshlab o'yinchoqlarigacha e'tibor qaratish insonni yoshlik chog'idanoq gender tizimiga kiritadi, oilada farzandga bo'lgan munosabatda ham gender farqlar ko'zga tashlanadi [2].

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib bormoqda.

NATIJALAR

Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari va vositalarining taraqqiyoti, sanoat ishlab chiqarishi, umuman, halq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga, shunigdek, oilalarda oila a'zolarining bir biriga bo'lgan yangicha talablari ham o'ziga xos tarzda ko'payib bormoqda, bu esa oilalarda ajrimlar sonini tobora ko'payib borishiga sabab bo'lmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda gender munosabatlarni, gender tenlik va tafovutni, ya'ni, yigit va qiz bolalarning barchasi uchun umumiy hamda ularning har biriga xos bo'lgan alohida- alohida belgilar, xususiyatlar va ijtimoiy rollarning ifodalanishini yoshlar ongiga singdirga e'tibor bermoq maqsadga muvofiq deb o'ylayman "Oila qasri"ga kirish bo'sag'asida turgan har bir yigit-qiz, bo'lajak kelinchak bunday tushunchalar bilan mafkurasini to'yintirmog'i lozim.

MUHOKAMA

Oilada erning ham, xotinning ham o'z burchi va majburiyatlari mavjud. Hamma gap ana shu vazifalarni har kim o'z o'rnida uddalay olishida.

Oilada erning vazifalari quyidagilardan iborat:

U oilada posbon, bu vazifa undan ham jismoniy, ham ruhiy jasorat, jasurlik, qat'iylik va ishonchlilikni talab qiladi. Bunday erkaklar t'o'g'risida gapirganda " u bilan temir qo'rg'onda yashagandek o'zimni xotirjam his qilaman", deyiladi.

U oilasining iqtisodiy masalalarini yechishga qodir bo'lishi, oilani moddiy(moliyaviy)ta'minlashi kerak.

Hayot zarbalarini bukilmasdan yengib ot'ishi, o'ta chidamli va murakkab vaziyatlarda o'zini ham, rafiqasini ham qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lishi zarur.

U uzoqni ko'ra oladigan bo'lishi, oilani rivojlantirish uchun eng samarali yo'lni tanlay olishi lozim. U oilaning qaerda yashashi, qanday hayot kechirishi, nima bilan shug'ullanishi kabi masalalar bo'yicha qaror qabul qilishi, oilaning rivojlanishi va harakatlanishi uchun rafiqasi bilan birga sharoit yaratishga tayyor bo'lishi shart

Er-ruhshunos, u rafiqasi bilan turli hayotiy vazifalar yuzasidan muloqot va muzokaralar asosida kelishish, zarur bo'lganda , maslahat bera olish ko'nikmalariga ega bo'lishi, lozim.

Er-oila boshi, u oilada qabul qilingan qarorlar uchun mas'ul.

Oilada xotinning vazifasi:

U o'z turmush o'rtog'ini hurmat qilishi va ishjnchga asoslagan munosaat qurishi lozim.

Erning his-tuyg'ularini ifoda etishi uchun muhit yaratish hamda ochiq, sammimiy muloqot qilishga tayyor bo'lishi darkor.

Uyda qulaylik yaratish, o'zining va reining dam olishi, ruhiy va jismoniy kuchni tiklashi uchun xonadonga ko'rk va xotirjamlik, halovat bag'ishlashi, saranjon muhtini yaratishi zarur.

Turmush o'rtog'ining kayfiyatini his qilish va osoyishta munosabatini asrab-avaylashi kerak. Oila farovonligiga tegishli bo'lgan qarorlarni qabul qilishga faol ishtirok etish va eriga to'g'ri qaror qabul qilish uchun muammoni har tomonlama tahlil qilishda ko'maklashishi lozim.

Oila budjetini ratsional sarflashni bilishi muhim.

Oilada, uyda quvonch yoki g'am- g'ussa, xursandchilik yoki qayg'u, tushkunchilik yoki ko'tarinkilik, ishonch xukm surishi ko'proq ayol kishiga bog'liq. Bu uning faoliyat sohasi.

Ayol-oilning yuragi.

Yuqorida keltirilgan va sanab o'tilgan barcha vazifalarni o'tkinchi his-to'yg'ularga berilmaydigan shaxsgina bajara oladi. Hamma narsani tahlil qilish va oldindan ko'ra olish uchun kishi hushyor, mulohazali, o'z fikriga ega bo'lishi lozim. Oila qurishda va uning mustahkamligini ta'minlashda er va xotinga aynan shu xislatlar qo'l keladi, bu xislatlarning egasi bo'lmoq uchun esa yoshlarimiz "Gender munosabatlar"ni teran anglamoqlari lozim {4}

Yaxshi xotin oilaning davlat va baxti. Uning ozodaligi undan, uy egasining hotirjam va osoyishtaligi undan. Husinli bo'lsa— ko'ngil yozig'i, xushmuomala bo'sa—jon ozig'idir. Oqila bo'sa ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob- anjomlar pokiza va saranjom turadi (Alisher Navoiyning "Vaqfiya" asaridan.)

XULOSA

Asrlar davomida shakllangan va insonning faoliyat yo'nalishini belgilab beradigan ijtimoiy me'yorlar turli jins vakillari o'rtasida o'zoro munosabatni izga solgan holda jamiyat a'zolari turmushini yengillashtiradi, gender muammolarini tezlikda hal etish imkoniyatini yaratadi, eng asosiysi, har bir jinsga xos vazifalarni anglash jarayoni milliy, madaniy qadriyatning o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Bunda yoshlarni oilaga tayyorlash jarayoni alohida o'rin egallaydi. Chunki bu jarayonda o'g'il va qiz bolalar o'zlariga oc xususiyatni anglaydilar, mos rollarni o'zlashtiradi va gender tafakkur asoslarini egallaydilar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.Qonun ustivorligi – inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O_zbekistonl 2017.
- 2 PEDAGOGIKA ensiklopediyasi. 1-jild A-YO. "O'zbekiston milliy enseklopediyasi"
Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2015
- 3.G'B.Shoumarov tahriri ostida Oila psixologiya. 2007. BBK 88.5ya722.
4. D.Toshmuhammedova: "Mustahkam oilaga yo'llanma" 2019yil. Muharrir: Zamiraxon Bilolova.www.credoprint.uz